

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.A.Ganiyeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi kelasi zamon shakllarining polifunksionalligi	6
G.S.Mirzayeva	
Lingvokulturmalar adabiy matnni ochib beruvchi kalit sifatida	10
S.N.Fazildinova	
The use of hyperbole in Alisher Navoi's works	14
Sh.T.Axmadjonova	
O'zbek tilshunosligida nutq uslublarining o'rganilish talqini	17
D.S.Usmonova	
Exploring values through phraseological units: a study of axiology in language	20
D.S.Usmonova, K.U.Davlyatova	
Gender features of children's animation and emerging translation challenges	24
N.R.Maxmudova	
O'zbek va jahon tilshunosligida ornitonimlarning o'rganilishi xususida	28
M.Saminjonov	
Rasmiy-jamoaviy qasamlar	31
I.M.Jo'rayev	
Qadimiy qadriyatlar	37
D.R.Ubaydullayeva	
Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemalarning struktural-semantik jihatlarini qiyosiy tadqiqi	41
N.Q.Adamboeva	
Ingliz tili badiiy asarlaridagi xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari	49
Z.M.Dadahonova	
Components of knowledge control	53
L.Teshebayeva	
O'zbek va ingliz ertaklarida mifonim va spellonimlar	56
Ш.М.Артикова	
Интегральные и дифференциальные признаки тавтологии и плеоназма	60
M.M.Nurmatova	
Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida	66
S.I.Quziyev	
Oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning xususiyatlari	70
T.Z.Ismonova	
Problems and solutions of grammar translation method	76
N.A.Komilova	
Zamonaviy tilshunoslikda gender nazariyasi asoslari	80
D.X.Madazizova	
The significance of text and discourse in enhancing communicative competence	83
S.A.Yusupova	
Morphemic units expressing honour in different system languages	86
N.Sidikova	
Stevan Sveygning "Noma'lum ayol maktubi" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri	91
Sh.X.Nuritdinova	
Nemis va o'zbek tillarida kelishik kategoriyasi tipologiyasi	94
N.K.Abbasova, N.A.Abdullaeva	
Semantic analysis of english phrasal verbs	98
B.A.Mukhtorova	
The "Concept" in linguistics	102
R.A.Ortiqov	
Ulug'bek hamdamning "Ota" asaridagi monologlar tahlili	106
Sh.O.Abdiloyev	
Zoonim frazeologizmlar xalq tarixi va madaniyati in'ikosi	110

ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ASARIDAGI MONOLOGLAR TAHLILI

ANALYSIS OF MONOLOGUES IN "OTA" BY ULUGBEK HAMDAM

АНАЛИЗ МОНОЛОГОВ В «ОТА» УЛУГБЕКА ХАМДАМА

Ortiqov Rustamjon Abdumalik o'g'li¹¹Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada adabiyotshunoslikda muhim masalalardan biri hisoblangan badiiy asarda monologning ahamiyati va uning asar qurilishidagi o'rnini haqida nazariy ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, manolog va uning turlarini tadqiq qilishda foydalanilgan Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani haqida ham mufassil ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, monologning shakli va mazmun bo'yicha ajratilgan turlarini tushuntirishda "Ota" romanidan parchalar misol sifatida keltirilgan.

Abstract

This article provides theoretical information about the importance of the monologue in the literary work and its place in the construction of the work, which is considered one of the important issues in literary studies. Also, detailed information is given about the novel "Ota" by Ulugbek Hamdam, which was used in the research of monologues and its types. In addition, excerpts from the novel "Ota" are given as an example to explain the types of monologue separated by form and content.

Аннотация

В данной статье приводятся теоретические сведения о значении монолога в литературном произведении и его месте в построении произведения, что считается одним из важных вопросов литературоведения. Также дана подробная информация о романе Улугбека Хамдама «Отец», использованном в исследованиях монолога, и его типах. Кроме того, в качестве примера для пояснения типов монолога, разделенных по форме и содержанию, приводятся отрывки из романа «Отец».

Kalit so'zlar: monolog, ichki monolog, monolog-xotira, monolog-orzu, monolog-o'kinch, monolog-muhokama, "Ota" romani.

Ключевые слова: монолог, внутренний монолог, монолог-воспоминание, монолог-сон, монолог-читатель, монолог-рассуждение, роман «Отец».

Key words: monologue, internal monologue, monologue-memory, monologue-dream, monologue-reader, monologue-discussion, "Ota" novel.

KIRISH

Monolog - obrazning ruxiy holati, uning ongiyu qalbida kechayotgan jarayonlarni tasvirlashning asosiy shakli [1:334]. Ayni chog'da, shartli ravishda tasvirlanuvchi bunday ruxiy jarayonlar voqealarga g'oyaviy-hissiy munosabatni ifodalash, ayrim muhim tafsilotlarni berish, syujet rivojini asoslash kabi qator muhim vazifalarni bajaradi.

Ichki monolog – qahramonning moddiylashmagan, o'ziga qaratilgan va ichidagina kechuvchi nutqi, badiiy psixologizmning bevosita shakli. U shartli ravishda inson ongida kechayotgan o'ylov (his etish) jarayoni sifatida qabul qilinadi. Personaj ruxiyatini tasvirlash vositasi sifatida qabul qilinadi[1:337]. Ichki monolog vositasida badiiy qahramon yuz berayotgan voqealarni mushohada qiladi, izlanadi, o'z-o'zini taftish qiladi, izhor etadi va iqrar qiladi – shu tarzda uning ruhiyati dramatiklashtiriladi. Shuningdek, ichki monologda qahramon o'zining sirli, yashirin fikrlarigacha aytadi. Shu boisdan uchki monolog orqali qahramon kitobxon oldida o'z-o'zini ochadi[1:338]. Natijada uning shaxsiyatida hech narsa sirli yoki tushunarsiz bo'lib qolmaydi va ichki monologlarda qahramon hayotining eng keskin vaqtlari ifodalanadi.

Monologlar g'oyaviy mazmuniga ko'ra: monolog-xotira, monolog-muhokama, monolog-orzu kabi turlarga bo'linadi. Monolog-xotirada qahramon o'z o'tmishini, boshidan kechirgan kechinmalar va psixologik hodisalarni eslasa, monolog-muhokamada yozuvchi personajning muhim va zarur masalalar bo'yicha fikrlarini umumlashtirib beradi, monolog-mulohazada qahramonning individual, epik va psixologik xususiyatlari aks etsa, monolog-orzuda personajning intilishi va orzu-havaslarini ifodalanadi[1:338].

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Monologlarni mazmuniga ko'ra turli guruh yoki kategoriyaga bo'lib o'rganish badiiy asarning qiymatini oshiradi. Shuningdek, asarning monologlarini tadqiq qilish orqali muallifning estetik idealini yaxshiroq tushunishga imkon yaratadi. Ushbu maqsadda monologlarni tadqiq va tahlil qilish uchun

avvalo adabiyotshunoslik sohasi bo'yicha yozilgan turli mualliflarga tegishli bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalar o'rganildi va ularda bayon etilgan ta'rif hamda misollar o'zaro qiyoslandi. Qiyoslash natijasida aniqlangan bilim va ko'nikmalar umumiyashtirish va xulosalash prinsiplari asosida bayon qilindi. Shuningdek, bayon etilgan xulosalar "Ota" asaridan olingan misollar yordamida tushuntirildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Ulug'bek Hamdamning "Ota" asarida ham bosh qahramon Po'latning ichki dunyosi, uning o'y-hayollarini kitobxonga yaqinroq tanitish maqsadida monologdan unumli foydalanilgan. Asar davomida bosh qahramonning dunyoqarashidagi o'zgarishlar, uning o'z atorifida bo'layotgan voqealarga oz mushohadasiga ko'ra yondashishi, voqealar rivoji asnosida uning ham inson sifatida, ham ota sifatida o'sib borishi ichki monologlar orqali ifodalangan.

Asarning boshida Po'latning onasi Oychechak opaning qistovi bilan "nafasi o'tkir azayimxon" ning uyiga tashrif chog'ida yangragan fikrlarini misol sifatida olaylik: "Kurrai zaminda inson oyog'i yetmagan joy qolmagan, hatto erta-indin oyga uchaman, deb turgan, irim-sirimu xurofotning o'rnini ilmu fan, tibbiyot egallagan bir davrda odamlar bu sehgarga netib bunchalar ixlos qo'ydi ekan? Qiziq, juda qiziq!.." [2:5] Yuqoridagi fikrlar orqali Po'latning vaziyatdan norozi ekanligi, rivojlangan zamonda o'z yurtdoshlarining ko'zbo'yamachi "azayimxon"larga ishonib yurganligi uning ajablanishiga sabab bo'lganligi ifodalangan. Bu orqali u o'z yurti rivoji uchun qayg'uradigan, insonlari bilimli bo'lgan yurti xohlashi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu holatda, o'zi yordamga muhtoj bo'lsada, umuminsoniy fikrlarni mushohoda bilan yurita olishi qobilyati ko'zga tashlanadi. Vaziyatga o'zgartirish kirita olmasada, bu holatda o'z fikriga ega bo'lishi, unda yashirin potensial borligini, faqat uni rivojlantirishga moyillikni ko'rsatadi.

Asar davomida bosh qahramonning ota bo'lish istagida tug'ilmagan farzandiga nola, xitob tarzida berilgan monolog yozuvchining mahoratini belgilaydigan epizodlardan biridir. Biologik hamda ijtimoiy kelib chiqish talqiniga ko'ra, bar bir tirik jon o'z naslining davom ettiruvchi dilbandi bo'lishini chin yurakdan istaydi, Po'lat ham bundan mustasno emas. Urushdagi mislsiz qiyinchilik va horlik tufayli, garchi u tirik qaytgan bo'lsa ham, uzoq muddat davomida farzandsizlik uni va yuragining ikkinchi yarmi, ko'z ochib ko'rgani Yog'duning qalbida tiklab bo'lmas jarohatlar yetkazadi. Po'lat yuragining tub-tubidan chiqayotgan ushbu xitob monolog-orzu, monolog-o'kinch tarzida yangraydi: "Hayot nima o'zi? Bir kelishu bir ketishda! Shu kelib ketishda ortingdan qoladigan faqat bola! Bola - o'limning yuziga inson tushirgan tarsaki. Ortidan farzand qoldiribgina "Dunyoda men borman!" deya oladi erkak kishi. Yo'qsa, umr deganlari hovuchingga olgan suvdek gap – oqadi-ketadi. Farzand, faqat farzand! Qolgani – bekor, qolgani – bir pull!.. Lekin qanisan? Qayerlarda qolding! Nega kelmaysan? Ko'zlarim yo'llaringda to'rt bo'ldi-ku, nega hayallading, ey bolam... Kel endi, kel!.. kelib meni, o'ttizdan o'tib, qirqqa yetmay qaddi dol bo'lgan otang qaddini tik qil! Boshi egilib qolgan onangning boshini ko'tar!"[2:76] Ushbu monologda qaxramonning ruhiy olamini, uning orzu-istaklarini ochib berishda kuchli ta'sir vositalaridan foydalanilgan. Unda nafaqat bir o'zbek og'lonining, balki yer yuzida yashaydigan farzand ko'rish istagi bo'lgan istagan bir insonning dilidan kechgan universal hissiyotni ifodalaydi. Bu holatda qahramon bir paytning o'zida ham individuallik, ham umumiylik hislatlarini namoyish etmoqda. O'zbek xalqi qadimdan bolajon xalq, nimaiki topsa bolamga deydigan fidokor xalq. "Ota" romanida bosh qaxramon Po'lat ham ushbu mentalitet g'oyalari asosida ulg'aygan va baxtli inson bo'lish manbai sifatida farzand voyaga yetkazishni tushunadi.

Asarning ijtimoiy ahamiyati oshirgan faktorlardan biri, shubxasiz, Ulug'bek Hamdamning urush deb atalmish barcha davrlarda insoniyatning eng havfli dushmaniga aylangan dahshatdir. Ayniqsa, urushning qoq yuragida bo'lgan, uning barcha falokatlarini o'z tanasida sinovdan o'tkazgan bosh qahramon Po'latning tilidan yangragan monologlar, badiiy voqealar tizginini yanada ochib bergan va aumumiylikni, shuningdek, o'ziga xoslikni ham ifodalaydi. Urush – mavzusi barcha badiiy sa'nat namunalari uchun universal tushunchalardan biri hisoblanadi. Uni yoritish, dahshatlarini odamzodga badiiy tarzda yetkazish ijodkordan mahoratni talab qiladi. "Ota" asarida ham quyida berilgan monologlar orqali barcha xalqlarning boshiga bitmas-tuganmas azob, baxtsizlik keltirgan ikkinchi jahon urushi sahnalari mahorat bilan yaratilgan. Quyidagi jumalarni e'tibor qarataylik: "Urush nima o'zi? Kimga kerak u? n/ega birovlar urush qilsa, men unga qo'shib ketdim? Vatan uchunmi? Nima degani o'zi vatan? Nega men uning uchun jonimni qurbon qilishim kerak? Men, Nikita, anavi uchovlon nima uchun o'lib ketayapmiz o'zi? Yana o'sha vatan uchunmi? Shu hammadan qoladiganyer, suv, ko'k uchunmi?.. Nahotki, bularning hammasi inson hayotidan ustun bo'lsa! Bu yorug' olamdagi eng oliy ne'mat hayot emasmi?! Qolgan hamma narsa undan keyin kelishi to'g'rimasmidi? Nega biz ularning o'rnini almashtirib qo'yganimiz? Axir, men o'lsam, yerning ham, suvning ham, ko'kning ham qiymati qolmaydiku! Boshqalar uchun ham shunday. Biz hammamiz o'lsak, und anima bo'ladi?.. Yer bilan suv yana bor bo'lishda davom etadi. Lekin ular o'z qimmatini yo'qotadi. Nega vatanlar inson hayotiga emas-

da, insonlar Vatan degan mavhum bir tushunchaga xizmat qilishi kerak?.. [2:123]” Ushbu ichki monologni ma’no jihatidan tasniflasak, u monolog-iqrorga yaqqol misol bo’la oladi. Urush boshlanganda onasining qarshiliklariga qaramay, sovet hokimiyatining jimjimador propagandasiga uchib, o’z nomiga chaqiruv qog’ozini shaxsan o’zi yozdirib kelgan Po’lat urushning dastlabki onlaridan u qattiq adashganini, urush – degani qahramonlik emas, aksincha, ma’lum toifa manfaati uchun millionlab jonlarning qurbon qilinishi ekanligini anglab yetdi. O’z yurtidan uzoqda, onasi va sevikli yorining sog’inchi azobida, Po’latning urush haqida ilk xulosalari butkul noto’g’ri ekanligini, aksincha, u hom-hayol uchun o’z jonini xatarga qo’yib, uni qurbon qilishi mumkinligi haqida iqrori, badiiy qahramonning asar davomida shakllanib, charxlanib boradigan harakteriga yaqqol misol bo’la oladi. Mislisiz qiyinchiliklar, qiynoqlar iskanjasida bo’lsada, uning tirik qolish uchun ilinchi bor, uning suyukli yoriga bo’lgan muhabbati hayotda qolishiga zamin yaratadi. Quyidagi monologda bosh qahramon ichki kechinmalari namoyon bo’lgan.” Yog’du, go’zalim, sevgilim!.. Sen ham kut! Men o’lganim yo’q! Tirikman! Sening yoding bilan necha bor ajdaho komidan omon chiqdim, axir!.. Endi ham omon chiqsam, shu ochlik, shu qahraton qishu, shu sarsongarchilikdan sog’-salomat chiqib, o’zimiznikilarga qo’shilsam, so’z beraman, o’lmay oldingga boraman! Keyin bir umr birga yashaymiz, bir umr! Ertayu kech ko’zlaringga termilib, ko’ngligga qarab o’tiraman!.. Ammo tirik qaytishimni bosh sababi bu sen, sen borliging, meni kutishing!”

MUHOKAMA

Huddi haqiqiy hayotda bo’lgani singari, badiiy asarda ham adabiy qahramon voqealar rivoji jarayonida har xil sinov va qiyinchiliklarga duch keladi va bu sinovlar jarayonida obraz sifatida sayqallanadi. “Ota” asarida ham Po’lat uchun urush dahshatlari so’nggisi emasdi, urushdan keyin mustabid tuzum qurboniga aylandi, surgunda sakkiz yil azob tortdi. O’z oila a’zolariga yetishgach, barcha sinovlar ortda qoldi deb o’yladi, lekin undan keyin qahramonning boshiga o’zi kutmagan kulfatlar keldi. Farzandli bo’lib, barcha niyatlari ro’yobga chiqdi deb o’ylaganida, uning uyiga o’t ketdi, shu bilan birga uning yuragi olov iskanjasida qoldi. Yuraging bir parchasidan bo’lgan jigarbandi olov qarida qoldi. Bu o’rinda yozuvchi o’zbek xalqi va shuningdek, barcha insonlar uchun eng ahamiyatli bo’lgan farzandiga muhabbatni tasvirlaydi. Po’lat bu holatda o’zini aybdor xis qiladi va ichki his tuyg’ularini monolog-xitob orqali namoyon qiladi:” Axir... axir, u qiz bolaku! Yuzida chandiq bilan qanday yashaydi! Nima deb yashadi! Biz nima deymiz unga, ulg’ayganda! Men, otasi nima deyman! Sevinchni ko’zlariga qanday qarayman?! O’t o’chiruvchining qizini yuzi o’tdan kuyib o’tirsa! Ming-minglab o’tlarni o’chirgan, ne-ne odamlarni olov qaridan eson-omon olib chiqqan o’t o’chiruvchibittagina qizini o’tdan himoya qila olmay o’tirsa! Bu qanday gap? Bu qanday jazo? Bu qanday sinov o’zi?!.. Bunga qanday chidash mumkin?!..” Bu o’rinda bosh qahramon o’z qalbidan kechayotgan dardini ichki monolog orqali izhor qilyapti. Bu jarayon uning ongidagini sodir bo’lib, badiiy asarning qurilishiga va badiiy asar maqsad qilgan ijtimoiy maqsadni ochib berishda ta’sirli adabiy qurolga aylangan. Bu monologlarni ifodalash jarayonida foydalanilgan turli xil his-hayajonni bildiruvchi tinish belgilari, takrorlar inson ongida sodir bo’ladigan psixologik bo’hronni moddiylashtirishda yuksak ahamiyat kasb etadi.

“Ota” asarida ko’tarilgan muammolar bir inson umri davomida duch keladigan, uni ijtimoiy shaxs sifatida shakllanishida alohida o’rin egallaydigan murakkab voqealar jarayonidan iborat. Adabiy qahramonning nafaqat boshqa qahramonlar bilan, balki o’z “MEN” i bilan bo’lgan kontrast ko’p hollarda ichki-monolog yordamida tasvirlangan. O’z otalik burchi, farzandiga bo’lgan muhabbati, asarlar davomida shakllanib kelgan turli- xil urf-odat va tushunchalar yig’indisi bo’lgan an’analarga sodiq bo’lish tuyg’ulari orasida qolgan bosh qahramon o’zining psixologik holatini, ichki his-tuyg’ularini monolog-mulohaza orqali ifodalaydi:” Axir men otaman, ota! Bu dunyo otalar qo’lida edi-ku yoki men tufayli chiqib ketdimi? Yo’q, yo’q, bunga yo’l qo’yib bo’lmaydi. Aslo! Kerak paytda otalar qattiq turmas ekan, dunyo ham o’z o’rnida turmaydi: buziladi-ketadi. Mana, men – seni ko’p yaxshi ko’rib yubordim. Yuzing kuyik, yuraging kuymasin dedim, erkaladim, papaladim. Xo’sh, nima bo’ldi keyin? Ko’chadan bola orttirding! Haromi deyishadida axir bunday bolani, xaromi!.. Bir gunoh qilindi, endi bas! Endi keyingisiga yo’l qo’ymayman! Odamlar hayolida “Shunday qilib bola tug’ish mumkin ekan” degan o’yni tag-tomiri bilan sug’urib tashlash uchun ota qilishi shart bo’lgan ishni qilaman!..” [2:167].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, monolog badiiy asar tuzulishida, uning g’oyaviy-estetik jihatdan yetuk ijod namunasi bo’lishida, muallif tomonidan kitobxon ongiga singdirmoqchi bo’lgan ijtimoiy g’oyasini ochib berishda muhim rol o’ynaydigan adabiy qurolidir. Uning mazmuniga ko’ra ajratilgan turlari: monolog-xotira, monolog-orzu, monolog-muhokamalar bosh qahramon va obrazlarning badiiy hosilot sifatida rivojlanishiga katta hissa qo’shadi. Ulug’bek Hamdamning yuqorida bayon etilgan “Ota” asarida ham monolog va uning tarkibiy qismlariga kiruvchi turlaridan mahorat bilan foydalanilgan. Asosiy protoganist Po’lat otani shaxsiyatini, uning orzu-o’ylarini, dard va alamlarini kitobxoniga yetkazish vositasi sifatida

monolog asosiy o'rinni egallagan. Keltirilgan misollardan ko'rish mumkinki, muallif o'z kitobxonini qahramonlarining ichki dunyosini ham tushunishini, ular bilan birga o'sha vaziyatni chuqurroq his qilishini istagan va ichki-monolog bu maqsadni amalga oshirish ko'maklashgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Adabiyotshunoslikka asoslari", T.Boboyev. Toshkent, 2008.
2. "Ota" roman. Ulug'bek Hamdam. Toshkent, 2020
3. Abdumalik o'g'li, Ortiqov Rustamjon. "Theoretical Aspect of "Synecdoche "As a Stylistic Figure." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.4 (2023): 249-254.
4. Rustamjon, Ortiqov, and Mo'ydinov Shahboz. "Websites as Support Tools for Learning the English Language in Fergana State University." *Czech Journal of Multidisciplinary Innovations* 4 (2022): 38-46.